



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025 yil 21-fevral, № 37 (8932)

Juma Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

20-fevral kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlar deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'ida sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning to'rtinchi yalpi majlisining birinchi kunida dastlab "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohada davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida keng ko'lami ishlohtlar amalga oshirilib, jamiyatni yanilash yo'lida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mazkur ezgu amallar diniy va milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish borasida ham muhim o'rin tutmoqda.

Tarixiy obidalar, muborak qadamjolar va ziyoratgohlarning obodonlashtirilishi, masjid va madrasalar faoliyatining yo'lga

qo'yilishi, o'zbek xalqi hamda O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining milliy va diniy marosimlari, shuningdek, an'anaviy bayramlarining o'tkazilayotgani buning yaqqol dalilidir.

E'tiborlisi, keyingi yillarda O'zbekiston fuqarolari uchun Haj kvotasi 3 barobarga oshirilib, Umra ziyoratiga kvotalar to'liq bekor qilindi. Ulug' ajdodlarimizning diniy-ma'rifiy salohiyatini dunyoga tanitish maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilib, faoliyat ko'rsata boshladi.

Senatorlar tomonidan ma'qullangan qonun va konsepsiya bilan fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta'minlash va O'zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat ekanligiga oid konstitutsiyaviy qoidalarni ro'yobga chiqarishga hamda diniy sohada davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsiplari, ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilanmoqda.

Shuningdek, ushbu hujjat bilan



Akxon MYXAMMADOB onirch. Sypot.

belgilanayotgan asosiy vazifalarning bajarilishi ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirish maqsadida parlament komissiyasi tashkil etilishi nazarda tutilmoqda.

Konsepsiyaning qabul qilinishi diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashga asoslangan munosabatlar modelini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashishiga, jamiyatda totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik va

birdamlik muhiti mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan keyin yalpi majlisda "Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil vositalarini ishlab chiqish, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlariga kafolat tarzida yordam ko'rsatish sohasini kengaytirish, bank kreditlariga muqobil bo'lgan pul talabnomasidan boshqa shaxs qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qonunda bozor munosabatlarini

yanada rivojlantirish sharoitlarida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil vositalarini ishlab chiqish, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlariga kafolat tarzida yordam ko'rsatish sohasini kengaytirish, bank kreditlariga muqobil bo'lgan pul talabnomasidan boshqa shaxs qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi. Qonunda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish sharoitlarida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil vositalarini ishlab chiqish, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlariga kafolat tarzida yordam ko'rsatish sohasini kengaytirish, bank kreditlariga muqobil bo'lgan pul talabnomasidan boshqa shaxs qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.



### Dil so'zi

## E'tibor va g'amxo'rlik yoshimizga yosh qo'shmoqda

Mamlakatimizda har yili 9-may — Xotira va Qadrlash kuni arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Farmoni bilan biz kabi urush qatnashchilari va frontorti mehnatkashlari moddiy rag'batlantiriladi. Mazkur ezgu an'ana bu yil ham baland ruhda tashkil qilinayotgani kishiga o'ziga shukuh baxsh etayotir.



Xususan, davlatimiz rahbarining kecha e'lon qilingan "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmonini o'qib, quvonchdan ko'zlarimga yosh keldi, ko'ksim faxrga to'ldi. Unda biz kabi Vatanimiz ozodligi, xalqimiz omonligi yo'lida kurashgan fidoyilarga katta miqdordagi bir martalik pul mukofotlari berilishi belgilangan. Gap pulda emas, albatta. Bu e'tibor mamlakatimizda inson qadri, e'zoi naqadar yuksaligidan dalolat. Prezidentimiz va yaqin insonlarimizning qo'llab-quvvatlashi, mehr hamda g'amxo'rligi yoshimizga yosh qo'shmoqda, desam, mubolag'ga emas.

Bu yil yoshim 104 ga to'ldi. Ha, umrimizning eng gullagan yillarini ikkinchi jahon urushining olovli jangohlarida o'tkazdik. Dahshatli urush jarayonida Latviya, Litva, Estoniya kabi davlatlarni dushmandan ozod qilishda ishtirok etdim. U kunlarni eslashning o'zi qo'rqinchil... Urush hech kimni ayamaydi, shafqatsiz. Hozirgina gaplashib o'tirgan qurol doshning ko'z o'ngingda halok bo'ladi. Tasodif, omad, Yaratganning marhamati bilan omon qolish

mumkin. Lekin u yerda hech kim o'z jonini asrashni o'ylamaydi, aksincha, fikri zikri dushmanlarni yo'q qilishga qaratiladi. Ortingdan bo'zlab qolgan yaqinlarning, yurt ozodligi uchun kurash jangchiga kuch, iroda beradi.

Buyuk g'alabadan so'ng Vatanga salomat qaytish menga ham nasib etdi. Pedagogika sohasida o'qishni tamomlab, 40 yil davomida Boysun tumanidagi maktabda dars berdim. Shu kasbim ortidan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi" nishoni bilan taqdirlandim. Inson sha'ni yuksalgan, mehnati qadr topgan yurtimizda 11 nafar farzand, 48 nafar nevara, 70 nafar chevara va 7 nafar evara davrasida mehruhabbat hamda izzat-ikromda umrguzaronlik qilayman.

Vatanimiz tinchligi, yurtimiz obodligi va xonadonlarimiz fayzu barakasiga ko'z tegmasin. Barcha baloyu qazodan Yaratganning o'zi asrasin.

Shohimardon HAMROYEV, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Surxondaryo viloyati, Boysun tumani

## HAMKORLIK ALOQALARINI YANGI BOSQICHGA KO'TARGAN SAMARALI TASHRIF

O'zbekiston keyingi yillarda Ko'rfaz arab davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular orasida Kuvayt Davlati alohida ajralib turadi. Negaki, mamlakatimiz tashqi siyosatida mintaqaning baquvvat o'ikalaridan biri Kuvayt nisbatan yangi davlat. Ko'rfazdagi va Yaqin Sharqdagi arab davlatlari bilan aloqalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan pragmatik siyosat tufayli oxirgi yillarda faollashdi va davlatlarimiz bir-biriga mutlaqo yangi nigoh bilan qarashni boshladi.

### Mushohada

Tashqi siyosatdagi tajribadan yaxshi fikrimizni qo'llab-quvvatlaydi. Bunday muloqotlardan ko'zlangan maqsad — dunyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, sarmoya olib kelish, ularni yangidan-yangi korxonalar qurishga safarbar etish, odamlarni daromadli ish o'rinlari bilan ta'minlash, xalqimizning roziligiga erishish. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining ikki kunlik tashrif chog'ida 14 ta muhim tadbir o'tkazgani, dasturning zich tashkil etilgani ortida mashaqqatli mehnat yotibdi,

desak, yangilashmagan bo'lamiz. Asosiysi, muloqotlar tufayli o'zaro hamkorlikdagi hali ochilmagan qirralar kashf etildi, ulkan salohiyat yo'nalishlari aniqlandi. Davlatimiz rahbarining aeroportda Kuvayt Davlati Amiri tomonidan shaxsan kutib olinishi bu O'zbekistonga bo'lgan ishonch va hurmatdan dalolat beradi. O'tkazilgan tantanali marosimda butun Kuvayt hukumati hamda mamlakatda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus vakillarining qatnashgani ham samimiy munosabatning isbotidir.



## O'SIMLIKLIK KARANTINI VA HIMOYASI BO'YICHA AXBOROT ESHITILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklik karantini va himoyasi agentligi direktori I. Ergashevning "Qishloq xo'jaligi urug'lik materiallari va oziq-ovqat mahsulotlarini karantin nazoratidan o'tkazish, kimyoviy vositalarni (pestitsidlarini) ro'yxatga olish va savdosini tartibga solish hamda zararli hasharotlarga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda o'simliklik karantini va himoyasi boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, fitosanitar va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni yetkazib berish, tashqi bozorda mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, agrokimyoviy xizmatlar sifatini yaxshilash

bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida mamlakatimizda tom ma'noda o'simliklar himoyasi borasida yagona davlat siyosati shakllandi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimi yaratildi, davlat nazorati kuchaytirildi.



## Hududlar iqtisodiyotida yana bir drayver

Yurtimizda aholini uy-joy bilan ta'minlash, bu borada ularga ipoteka kreditlari va boshqa imtiyozlarni taqdim etish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2024-yilda:

- 100 mingdan ziyod xonadonlarga ega 2 044 ta ko'p qavatli uy bunyod etildi;
- mazkur uylarni barpo qilishda va yondosh tarmoqlarda 350 ming odam ish bilan ta'minlandi;
- sohani rag'batlantirish uchun 59 ming odamga 17 trillion so'm ipoteka krediti ajratildi.



Shuningdek, joriy yilda mamlakatimizda 120 ming xonadonli ko'p qavatli uylar qurilishi rejalashtirilgan.





# O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida

## AXBOROT

Xususan, mazkur qonunga ko'ra faktoring obyekti sifatida yuridik shaxsga yoki tadbirkorlik subyektiga nisbatan kelib chiqadigan pul talabnomasini belgilash, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo'yicha taqini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qilish va mijozning kontragenti norezident bo'lganda faktoring operatsiyalarini xorijiy valyutada amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Faktoringda qarzdorning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida moliya agenti tomonidan to'lov amalga oshiriladigan davlat va valyuta turi o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, faktoringda fribgarlik holatlarining oldini olish uchun pul talabnomasidan voz kechish to'g'risidagi xabarnomalarni garov reestrda ro'yxatga olishni yo'lga qo'yish nazarda tutilmoqda.

Mazkur hujjat bilan tadbirkorlik subyektlariga kredit tashkiloti oldidagi pul majburiyatini bajarish bo'yicha kafolatlarni (kafilliklar) berish faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi kafolatlarni berish tashkiloti hamda faktoring xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan faktoring tashkiloti institutlari joriy etilmoqda.

Endilikda qonunga asosan ustav fondining eng kam miqdori kafolatlarni berish tashkiloti uchun 100 milliard so'm, faktoring tashkilotlari uchun esa 2 milliard so'm etib belgilanmoqda. Mazkur tashkilotlar Markaziy bankda hisob ro'yxatidan o'tkaziladi, ularning faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi.

Qonunda nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga qo'llanilgan ayrim cheklolarni yumshatish va takomillashtirish nazarda tutilib, ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilishi mumkinligi, ularning ustav fondidagi ulushning 10 foizidan 20 foizgacha bo'lgan qismini bevosita yoki bilvosita olganda Markaziy bankni xabardor qilish, 20 va undan ortiq foizni olganda esa Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shartli belgilanmoqda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga, biznesni qo'llab-quvvatlash xizmatlari turlarining ortishiga, tadbirkorlik loyihalari moliyalashtirishning yangi yo'nalishlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shuningdek, Senatning yalpi majlisida "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur qonunga binoan jismoniy shaxs bilan kredit bitimlarini tuzishga taqiq belgilash va uni olib tashlashga bo'lgan huquqlar, ularni Kredit bitimi tuzish taqiqlangan shaxslar reestriga kiritish tartibi va shartlari, shuningdek, kredit axborotidan foydalanuvchilarning belgilangan taqini buzgan holda kredit bitimi tuzganligi

uchun javobgarlik belgilanilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Qonunda fribgarlik yo'li bilan fuqarolarning xabariz kredit mablag'larini ularning nomiga rasmiylashtirish va mazkur kredit mablag'larini o'zlashtirish holatlarining oldini olishga qaratilgan mexanizmi yaratishga oid o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish nazarda tutilgan.

Shuningdek, qonunda fuqaroning Kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestrda mavjudligi yoki mavjud emasligi, taqiqlash (taqini bekor qilish) to'g'risidagi arizaning holati haqida axborot olish hamda berishda kredit byurolariga nisbatan huquq va majburiyatlar, ularga nisbatan qo'llaniladigan choralar va sanksiyalar ham aks ettirilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi fuqarolar ishtirokisiz yoki xabariz kredit bitimini rasmiylashtirish bilan bog'liq fribgarlik holatlarining oldini olish maqsadida kredit byurosiga ariza kiritish orqali fuqaro bilan kredit bitimini tuzishni taqiqlash imkonini beradi.

Muhokamadan so'ng mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng "Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi, shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va valyutani tartibga solish liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish, shuningdek, tashqi savdo faoliyatini va valyutani tartibga solishni liberalashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Amaldagi tartibga ko'ra tadbirkorlik subyektlari ayni bir huquqbuzarlik uchun bir necha marotaba javobgarlikka tortiladi.

Jumladan, tadbirkorlar xodimlar sonini yashirganlik, tovarlarni majburiy raqamli markirovkash qoidalarini buzganlik va fiskal belgilarni aks ettirmaganlik kabi aynan bir huquqbuzarlik uchun ham moliyaviy jarimaga, ham ma'muriy jarimaga tortilishi mumkin.

Ushbu holatlarning oldini olish maqsadida soliq ma'muriyatchiligining yanada takomillashtirilishiga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha aktivlarning qonunda belgilangan muddatlarda repatriatsiya qilinishini ta'minlashga oid talablarni qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yuqoridagi holatlarni bartaraf etish maqsadida ushbu holatlarda qo'llaniladigan uch bosqichli O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ushbu qonunda loyihalashtirish, asbob-uskunalar va ehtiyot qismlarni yetkazib berish, asbob-uskunalar o'rnatish hamda qurilish-montaj ishlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish (xizmatlarni ko'rsatish) yuzasidan investitsiya loyihalari doirasida tuzilgan shartnomalarda belgilangan muddat 180 kundan



IOYUC BYPMIB oltin chop.

ortiq bo'lsa, mazkur shartnomadagi muddatlar qo'llanilish nazarda tutilmoqda.

Muhokama qilingan qonun bilan soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarining huquqbuzarlik mutanosibligini ta'minlash orqali tadbirkorlik subyektlari aynan bir huquqbuzarlik uchun bir necha marotaba javobgarlikka tortilishining oldini olish belgilanmoqda.

Qonunning qabul qilinishi natijasida soliq ma'muriyatchiligi yanada takomillashtirilib, normal amaliyotda ikki xil taqin qilinishining oldi olinadi va bir xilda qo'llanilishi ta'minlanadi.

Shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini liberalashtiriladi, bu, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari samarali himoya qilinishiga hamda ortiqcha xarajatlarni kamaytirilishiga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan birga, Senatning yalpi majlisida "Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda yer uchastkalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish, ekologik vaziyatni yaxshilash, yashil maydonlarni kengaytirish orqali aholiga qulay ekologik sharoit yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, hozirda yer va shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik, shaharsozlik reglamentlari talablariga rioya etilishini ta'minlash, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarning yer uchastkalaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi xabardorligini oshirish maqsadida yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlarini aniqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, respublikada istirohat bog'lar,

xiyobonlar, sayilgo'lar hududlarini hamda ularida ekigan daraxtlar muhofaza qilinishini kuchaytirish, ushbu hududlarda bino va inshootlar qurilishining oldini olish choralarini ko'rish lozim.

Qonun bilan yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlari joriy etilishi, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olish uchun foydalaniladigan yerlarni xususiyashtirish yoki begonalashtirish, hududlarini qisqartirish, ular bino va inshootlar qurish taqiqlanishi qat'iy belgilanmoqda.

Ushbu cheklolarni buzganlik uchun jinoyi javobgarlik kuchaytirilishi, botanika bog'larini xususiyashtirish va ularning hududlarida qurilishni amalga oshirish taqiqlangan holda botanika bog'larining muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro'yxatiga kiritilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, qonun bilan Yer kodeksi alohida bob bilan to'ldirilib, yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish tartibi joriy etish, ularni belgilash va o'zgartirish tartibi taqiq etilmoqda.

Senatorlar ta'kidlaganidek, qonunning qabul qilinishi yer resurslaridan oqilona foydalanish va boshqarish samaradorligini oshirish, yer fondining barcha toifalaridagi yer uchastkalarini bozor va kadastr baholash sifatini yaxshilash, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlarining yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlari bo'yicha xabardorligini va sohada nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, madaniy hordiq maskanlari va ularning hududlarini saqlab qolish, botanika bog'larini va ularning yerlarini begonalashtirish, hududida bino-inshootlar qurish yoki qurilish osti maydonlarini kengaytirishni taqiqlaydi hamda mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshiradi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning yalpi majlisida "Qurilish maydonlarida chang va qum zarachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun ham muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qurilish va urbanizatsiya ko'lamlarining kengayishi, qurilish obyektlarining maydonlaridan chang va qum zarachalarining shamol orqali havoga ko'tarilishi natijasida atmosfera havosi yomonlashmoqda.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda respublikamizda 500 kvadrat metrik ochiq qurilish maydonidan yiliga 50 tonnagacha chang va qum havoga ko'tariladi.

Aslida qurilish hududlari, unga kirib-chiqish yo'llarida chang va qum zarachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etish bo'yicha majburiy talablar (changni bostirish uchun osma yomg'irlikch va suv purkagichlardan foydalanish) shaharsozlik qoidalariga kiritilgan.

Biroq milliy qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilish talablari va shaharsozlik qoidalarini doirasida aynan qurilishda changning havoga ko'tarilishiga yo'l qo'yg'lik uchun aniq javobgarlik nazarda tutilmagan.

Shu sababli mavjud vaziyat qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun qurilish tashkilotlarining mansabdor shaxslariga nisbatan javobgarlik belgilanishini taqozo etmoqda.

Senatorlar tomonidan ko'rib chiqilgan qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks ushbu turdagi huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilovchi modda bilan to'ldirilmoqda.

Endilikda o'lchami 500 kvadrat metr va undan ortiq bo'lgan qurilish maydonida, unga tutash bo'lgan hududda hamda undan chiqish yo'llarida chang va qum zarachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni buzish yoxud ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlardan ortiq darajada atmosfera havosiga chiqarilishiga yo'l qo'yish mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, agar shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida takroran sodir etilsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdorida jarima qo'llaniladi.

Senatorlar ta'kidlaganidek, ushbu qonunning qabul qilinishi binolar, inshootlar va ularning majmualarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta'mirlash davrida atmosfera havosiga tartibsiz ravishda tashlanadigan chang va qum zarachalarining havoga ko'tarilishining oldini oladi. Atrof-muhitning ekologik musaffoligini saqlash, fuqarolarning o'z hayoti va sog'ligi uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish huquqlarini ta'minlaydi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Senatining  
Axborot xizmati.

## MAHALLIY MUAMMOLARDAN – MILLIY QONUNLARGA

*Kecha Oliy Majlis Senatining to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi. Yalpi majlis kun tartibidan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida huquqiy asos vazifasini o'tashi kutilayotgan bir qator qonunlar hamda boshqa masalalar o'rin olgan bo'lib, ularning har biri bunggacha parlament yuqori palatasi qo'mitalarida, shuningdek, joylarda mahalliy Kengashlar deputatlari bilan hamkorlikda tahliliy asosda ko'rib chiqildi.*

### Munosabat

#### Kafolatlarni va mikromoliya bozorida yangiliklar

**Pokiza AHMEDJANOVA,**  
Oliy Majlis Senatining  
Sud-huquq masalalari va  
korruptsiyaga qarshi kurashish  
qo'mitasi a'zosi:

– "Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan tadbirkorlik subyektlariga kafolat (kafillik) berish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxs – kafolatlarni berish tashkiloti, faktoring xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan yuridik shaxs – faktoring tashkilotini joriy etish hamda nobank kredit tashkilotlari qatoriga qo'shish normasi kiritilmoqda.

Kafolatlarni berish tashkiloti uchun ustav fondining eng kam miqdori 100 mlrd. so'm, faktoring tashkilotlari uchun 2 mlrd. so'm etib belgilanadi. Ushbu tashkilotlar Markaziy bankda hisobga olish ro'yxatidan o'tkaziladi. Faoliyati ham Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi.

Bundan tashqari, nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga qo'yilgan ayrim cheklolarni yumshatiladi va takomillashtiriladi. Aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilishi, mikromoliya tashkilotlari tomonidan yuridik shaxslarga xorijiy valyutada xizmat ko'rsatishga ruxsat berilishi va mikromoliya tashkilotlari litsenziya asosida to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Bunday tashkilotlarga jismoniy shaxs bo'lgan ta'sischilaridan amaldagiga nisbatan 2 baravar ko'p miqdorda qarz mablag'larini jalb qilishga ruxsat beriladi. Ustav fondidagi 10 foizdan 20 foizgacha bo'lgan ulush olinganda Markaziy bankni xabardor etish tartibi joriy qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga Markaziy bankning Auditorlik qo'mitasi faoliyati bo'yicha ham talablar kiritilyapti. Markaziy bank boshqaruvining mustaqil a'zolaridan biri Auditorlik qo'mitasining raisi bo'lishi va ushbu qo'mitaning bir nafar a'zosi buxgalteriya hisobi yoki audit sohasida ish tajribasiga ega bo'lishi shart.

Markaziy bank boshqaruvi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida Auditorlik qo'mitasi Markaziy bankda moliyaviy hisobotlar

tayyorlanishi va ichki audit xizmati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, xatarlarni boshqarish, tashqi auditning sifatini o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha vazifalarni bajaradi.

#### Kredit bo'yicha munosabatlar takomili

**Moyra TOSHOVA,**  
Oliy Majlis Senatining  
Sud-huquq masalalari va  
korruptsiyaga qarshi kurashish  
qo'mitasi a'zosi:

– "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunga asosan jismoniy shaxslarning ular bilan kredit bitimlarini tuzishga taqiq belgilash va olib tashlashga bo'lgan huquqlari, Kredit bitimi tuzish taqiqlangan shaxslar reestriga kiritish tartibi va shartlari, kredit axborotidan foydalanuvchilarning belgilangan taqini buzgan holda kredit bitimi tuzgani uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Ayni chog'da aholini kredit bilan bog'liq fribgarlik jinoyatlaridan himoya qilish, ularning xabariz kredit rasmiylashtirish hamda masofadan kredit mablag'larini yetchib olish holatlarini bartaraf etish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda kredit olishdan voz kechish mexanizmi joriy qilinadi.

Jismoniy shaxslar to'g'risida

ma'lumotni Kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestriga kiritish taqiq qilinib, kredit axboroti subyekti – jismoniy shaxslar tomonidan kredit bitimi tuzishni taqiqlash (taqini bekor qilish) to'g'risidagi ariza bilan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga elektron, davlat xizmatlari markazlariga yoki kredit byurolariga yozma shaklda murojaat etish imkoniyati yaratiladi.

Markaziy bank tomonidan kredit byurolariga nisbatan qoidabuzarlik uchun tegishli chora-tadbir va sanksiyalar qo'llaniladi. Qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro qilinishi majburiy ko'rsatmalar yuboriladi, bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima undiriladi.

#### Qurilishda yangi ekologik talablar

**Ikromxon NAJMIDDINOV,**  
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zosi:

– Qurilish va urbanizatsiya ko'lamlarining kengayishi, ushbu maydonlardan chang va qum zarachalarining ko'tarilishi atmosfera havosining yomonlashishiga asosiy sababdir. Shaharlarda bunday holat ko'rsatkichi bir yilda o'rtaacha 50 – 80 kummi tashkil etmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, 500 kvadrat metrik ochiq qurilish maydonidan yiliga o'rtaacha 50 tonna chang va qum zararlari havoga ko'tariladi. Qurilish maydonida, kirib-chiqish yo'llarida chang va qum zararlarning havoga ko'tarilishini bartaraf etish bo'yicha majburiy talablar (changni bostirish uchun osma yomg'irlikch va suv purkagichlardan

foydalanish) shaharsozlik qoidalarida mavjud.

Milliy qonunchilikimizda atmosfera havosini muhofaza qilish talablari va shaharsozlik qoidalarini doirasida aynan qurilishda changning havoga ko'tarilishiga yo'l qo'yg'lik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

Ushbu talablarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilash orqali chang-to'zonga befarq bo'lmaslik bo'yicha pudratchilarning mas'uliyatini oshirish maqsadida "Qurilish maydonlarida chang va qum zarachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Unga muvofiq Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks o'lchami besh yuz kvadrat metr va undan ortiq bo'lgan qurilish maydoni, tutash hudud hamda chiqish yo'llarida chang va qum zarachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etgan, ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlardan ortiq atmosfera havosiga chiqarilishiga yo'l qo'yg'lik mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari, agar shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari darajasida jarima qo'llashni nazarda tutuvchi 85-l modda bilan to'ldirilmoqda.

Davlat ekologik nazorati inspeksiyasi mazkur huquqbuzarliklarni aniqlashga hamda javobgarlikka tortishga mas'ul bo'ladi.

"Xalq so'zi".

### Parlament diplomatiyasi

TurkPA:

## O'ZARO ISHONCH VA MUSHTARAK MAQSADLAR

*Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov Istanbulda bo'lib o'tgan Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi (TurkPA) xalqaro ishlar bo'yicha qo'mitalari raislarining ikkinchi yig'ilishida ishtirok etdi.*

Unda Turkiya, Ozarbayjon, Qozg'iston, Qirg'iziston, Vengriya, Shimoliy Kipr parlamentlari a'zolari, TurkPA raisi, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) va Turkiya investitsiya jamg'armasi vakillari qatnashdi.

Ta'kidlash joizki, turkiy davlatlar o'rtasida ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni jadal rivojlantirish, strategik sheriklikni mustahkamlash va parlamentlar o'rtasida ishonchli munosabatlar o'rnatishga alohida e'tibor qaratilayotgani tahsinga loyiq. Bu jarayonda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan xalqaro tashabbuslarda parlament ishtirokining ahamiyati yuqori darajada.

Yig'ilishda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalarida hamkorlikni yaxshilash, turkiy davlatlar o'rtasidagi qo'shma loyihalar va kelishuvlarning parlament nazorati orqali ro'yogga chiqarilishini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Yakunda Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi xalqaro ishlar bo'yicha qo'mitalari raislari uchrashuvi qo'shma bayonoti qabul qilindi. Kelgusi uchrashuvni Qirg'izistonning Bishkek shahrida joriy yilning sentabr oyida o'tkazishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

"O'zbekkosmos" agentligi sun'iy yo'ldosh tasvirlari yordamida tuproqning sho'rlanish darajasini aniqlash bo'yicha sinov loyihani boshladi.



O'zbekiston va JST:

## HUQUQIY ASOSNI UYG'UNLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI



Shu bilan birga, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi hamda a'zolik yaratib beradigan imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun qonunchilik va ijro hokimiyati organlarining uyg'un hamkorligi muhim ahamiyat kasb qilishi ishtirokchilar tomonidan alohida qayd etildi.

Davra suhbatida ta'kidlanganidek, Parlament komissiyasi Prezidentimizning yangi chaqiriq Oliy Majlis

Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi tavsiyalaridan kelib chiqib tashkil etilgan bo'lib, qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirish, tegishli davlat organlari bilan birgalikda qonunchilikni xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil etish hamda JST talablariga muvofiq takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab

chiqishni maqsad qilgan va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun parlamentlararo aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan.

Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirish, tegishli davlat organlari bilan birgalikda qonunchilikni xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil etish hamda JST talablariga muvofiq takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab

chiqishni maqsad qilgan va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun parlamentlararo aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan.

## O'SIMLIK KARANTINI VA HIMOYASI BO'YICHA AXBOROT ESHITILDI

Qonunda Vazirlar Mahkamasi, Qishloq xo'jaligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'simlik karantini va himoyasi agentligi hamda Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasining o'simlik karantini va himoyasi bo'yicha vakolatlari aniq ko'rsatib berilgan. Shuningdek, respublika ijro etuvchi hokimiyat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, yuridik hamda jismoniy shaxslarning bu yo'nalishdagi huquq va majburiyatlari ham aniq belgilangan.

Bundan tashqari, o'simlik karantini va himoyasi bo'yicha qonunchilikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunchilikni xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil etish hamda JST talablariga muvofiq takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab

chiqishni maqsad qilgan va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun parlamentlararo aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan.

Qonunda Vazirlar Mahkamasi, Qishloq xo'jaligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'simlik karantini va himoyasi agentligi hamda Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasining o'simlik karantini va himoyasi bo'yicha vakolatlari aniq ko'rsatib berilgan. Shuningdek, respublika ijro etuvchi hokimiyat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, yuridik hamda jismoniy shaxslarning bu yo'nalishdagi huquq va majburiyatlari ham aniq belgilangan.

Bundan tashqari, o'simlik karantini va himoyasi bo'yicha qonunchilikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunchilikni xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil etish hamda JST talablariga muvofiq takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab

chiqishni maqsad qilgan va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun parlamentlararo aloqalarni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan.

## SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MUHOKAMASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan "Hukumat soati" bo'lib o'tdi.

### "Hukumat soati"

Unda deputatlar "Suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejoychi texnologiyalarini joriy etish, kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish ishlarining borishi to'g'risida"gi masalani muhokama qilishdi.

Kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan deputatlar savollari Suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev javob berdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda respublikamiz miqyosida ekologik tizimlar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yish, aholini suv resurslari bilan barqaror ta'minlash va undan oqilona foydalanish, suv tejoychi texnologiyalarini joriy etish, kanallar hamda sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda sohalar bo'yicha suvga bo'lgan o'rtacha talab yiliga 51 mlrd. kub metrni tashkil etadi. Bu suvlarning 15 - 20 foizi mamlakatimiz hududida shakllansa, qolgan katta qismi qo'shni davlatlardan oqib keladi. Bu tarmoqlar kesimida tahill qilinganda, suvning asosiy qismi, ya'ni 91 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'iga, qolgan kommunal xo'jalik, sanoat va energetika sohalariga to'g'ri keladi. Xususan, qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari hamda davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol

hamkorlikda uchrashuvlar tashkil etilib, muhim kelishuvlarga erishilmoqda.

"Hukumat soati" da deputatlar o'tgan yilda suv tejaysh texnologiyalarini joriy etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi, davlat tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan subsidiya mablag'laridan maqsadli foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan ham ma'lumot berildi.

Vazirning aytishicha, so'nggi besh yilda mamlakat bo'yicha jami 1,9 mln. gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinib, ularning umumiy ko'rsatkichi sug'oriladigan yer maydonlariga nisbatan 46 foizga yetkazilgan.

2024-yilda besh yil muddatga 2 yil imtiyoz davri bilan 14 foizi kredit mablag'lar ajratilishi natijasida jami 326 ming gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalar tatbiq etilgan. 522,8 ming gektar qishloq xo'jaligi ekin yerlari laktar uskunasi yordamida tekislanishi hisobiga mavsum davomida 2,5 mlrd. kub metr suv iqtisod qilishga erishilgan.

Suv tejoychi texnologiyalarga o'tgan tashabbuskorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tgan yilning hisobot davriga qadar 22,1 ming gektar paxta maydonida joriy etilgan tomchilatib va diskret sug'orish texnologiyalari uchun jami 208,2 mlrd. so'm subsidiya mablag'lar ajratilgan. Ushbu tadbirlar bajarilishi tufayli o'tgan yili 8 mlrd. kub metr suv resurslari isrof

qilinishining oldi olinib, takroriy ekinlarni suv bilan kafolatli ta'minlash imkoniyati yaratilgan.

Deputatlar vazirlik tomonidan kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish, bu sohaga ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qilinayotgan ishlar bilan ham qiziqishdi.

Vazir bunga javoban o'tgan yilda kanallarni betonlashtirish uchun respublika byudjetidan 700,5 mlrd. so'm mablag' o'zlashtirilib, 554,2 km. magistral, tumanlararo hamda xo'jaliklararo kanallar rekonstruksiya qilingani, shundan 437,3 km. kanallar betonlashtirilganini aytdi. Shu bilan birga, xalqaro moliya tashkilotlarining tegishli mablag'lar jalb etilib, 48,2 km. kanallarda betonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Hozirgi kunda XXRning nufuzli kompaniyalari bilan 1,3 ming km. kanallarni rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar olib borilyapti.

Vazirlik ma'lumotiga ko'ra, 2030-yilga qadar beton qoplamali kanallar ulushini 13,2 ming kilometr, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln. gektarga, shu jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini 600 ming gektarga yetkazish maqsad qilingan. Bu borada joriy yilda 570,4 km. magistral kanallar va 15 ming km. ichki xo'jalik irrigatsiya tarmoqlarini beton qoplamaga o'tkazish rejalashtirilgan.

"Hukumat soati" da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan bir qator takliflar berilib, kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olingan.

"Xalq so'zi".

# HAMKORLIK ALOQALARINI YANGI BOSQICHGA KO'TARGAN SAMARALI TASHRIF

Ikki mamlakat rahbarlarining muzokaralari mazmunli kechdi, keng qamrovli sheriklikni rivojlantirish bo'yicha kelishib olingan.

Iqtisodiy hamkorlik nuqtayi nazaridan, mamlakatlarimiz biri-biriga muhim imkoniyatlarni ishga solishi ma'lum bo'ldi. Prezidentimizning Kuvayt vialahdi, hukumat a'zolari hamda yirik kompaniyalar rahbarlari bilan o'tkazgan uchrashuvlari yakunlari ana shundan dalolat beradi.

Yaqingacha Ko'rfazdagi arab davlatlari bilan, jumladan, Kuvayt bilan munosabatlarni mavjud salohiyatimizga mos ravishda faol bo'lmadi. Prezidentimizning ochiq siyosati tufayli bu yo'nalishda ham keyingi yillarda tub burilish yuz berdi. O'zbekiston mintaqasi mamlakatlari bilan aloqalarni yildan-yilga rivojlantirib bormoqda. O'zaro muloqotlar faollashdi, savdo va investitsiyalar ko'paydi, qo'shma korxonalar hamda yirik qo'shma sammitlar o'tkazilmoqda. Shuning uchun Kuvayt bilan munosabatlarga yangicha impuls berish Prezidentimiz sa'y-harakatlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

Eng avvalo, Kuvayt dunyodagi eng boy davlatlardan biri hisoblanadi va uning katta moliyaviy imkoniyatlari O'zbekistonga muhim investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi. Kuvaytning suveren jamg'armalari hamda yirik sarmoyaviy fondlari mamlakatimizdagi istiqbolli loyihalarga katta mablag' ajratishi mumkin va bu potensial yangi yo'nalishlardan biri. Tashrif Kuvayt uchun O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim iqtisodiy hamkorlik sifatidagi ahamiyatini yana bir bor namoyon etdi. Bu esa, o'z navbatida, Kuvayt uchun sarmoya oqimini diversifikatsiya qilish va mintaqada bozorlarida o'z ishtirokini kengaytirish imkonini yaratadi. Ikkinchi muhim jihati, Kuvayt bozoriga kirish orqali O'zbekiston o'z mahsulotlarining eksport geografiasini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xabarimiz bor, O'zbekistonda may oyida Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi va Markaziy Osiyo ikkinchi sammiti o'tkaziladi. 2025-yilda Ko'rfaz arab davlatlari tashkilotiga Kuvayt raislik qilayapti. Shu jihatdan, ushbu tadbirning O'zbekistonda o'tkazilishi va Kuvaytning Kuvayt arab davlatlari tashkilotiga raisligi nafaqat ikki davlat, balki ikki mintaqada imkoniyatlarini ham birlashtirishga, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi kun tartibini yaratishga xizmat qiladi. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, yanvar oyida Prezidentimiz ilk tashrifini Birlashgan Arab Amirliklaridan boshladi. Va bu tashriflar mantiqiy davomli mazmunga ega, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston va Kuvayt o'proq savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda moliyaviy hamkorlikdan manfaatdorligini muzokaralar natijalari yaqqol ko'rsatib berdi. Davlatimiz rahbari yettita yirik kompaniya rahbarlari bilan birma-bir uchrashuv o'tkazdi. Ushbu yo'nalishlar qishloq xo'jaligi, "yashil" energetika, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika, infratuzilma, shaharsozlik,

sog'liqni saqlash, turizm kabilariga borib taqaladi.

Hamkorlikni jadallashtirish maqsadida ikki davlat rahbarlari qo'shma investitsiya platformasi va ishlabarmonlar kengashi kabi mexanizmlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, Al-Kuvayt shahrida O'zbekistonning savdo uyini ochishga kelishib olingan. Kuvayt rasmiy investitsiyaviy muhiti yaxshilash, qo'shma korxonalar tashkil etish va sanoat kooperatsiyasi bo'yicha takliflarni ilqilik bilan kutib olishdi, shu bilan birga, Kuvayt tomoni O'zbekistondagi mavjud iqtisodiy sharoitlardan va investorlarga yaratilgan qulayliklardan foydalanishdan manfaatdorligini yashirmadi. Shuningdek,

**"O'zbekiston va Kuvayt o'rtasidagi yaqin sheriklik nafaqat ikki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ajralmas zaruriyati, balki mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning harakatlantiruvchi kuchi hamdir. Resurslar, tarmoqlar va strategiyalarining bir-birini to'ldirishi orqali ikki mamlakat o'zaro manfaatlariga erishishi hamda Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mintaqasi o'rtasidagi hamkorlikning namunal modelini yaratishi mumkin."**

Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi bilan amalga oshiriladigan loyihalar portfeli ham kengaytiriladigan bo'ldi.

Muzokaralar davomida dunyo oldida turgan asosiy muammolardan biri, ya'ni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bobida qo'shma loyihalarni birgalikda amalga oshirish yuzasidan ham kelishib olingan. Kuvaytlik investorlar uchun bu juda qiziqarli yo'nalish bo'lib, ikki mamlakat tadbirkorlari birgalikda O'zbekiston mahsulotlarini nafaqat Kuvayt, balki butun Yaqin Sharq bozorini zabt etishga safarbar qilishi mumkin. E'tiborlisi, muzokaralar yakuni bo'yicha umumiy qiymati 4,9 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar borasida kelishib olingan. Ikki davlat munosabatlari tarixi davomida hech qachon bunday raqamlar qayd etilmagan.

Yana bir masalaga to'xtalish joiz. Mamlakatimiz rahbari uchta istiqbolli yo'nalishda o'z takliflarini ilgari surdi. Birinchisi - qishloq xo'jaligi sohasida klasterlarni rivojlantirish, ikkinchisi - tekstil, farmatsevtika, sog'liqni saqlash va shaharsozlik yo'nalishlaridagi aniq loyihalarni amalga oshirish, uchinchisi - qo'shma investitsiyaviy dasturlar portfelin yaratish. O'zbekiston o'z oldiga 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard dollarga yetkazishdek ambitsiyali maqsadlarni qo'yg'an. Bunda, albatta, xorijiy sarmoyalarning muhim o'rin tutadi. Shu boisi davlatimiz rahbari Kuvayt investorlarini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan xususiyatlarini yuqoridagi qayd etilgan uchta yo'nalish Kuvayt Davlati tomonidan mamnuviy bilan kutib olini va istiqbolli yo'nalishlarni amalga oshirishning aniq mexanizmlari yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O'zbekiston va Kuvayt o'rtasidagi yaqin sheriklik nafaqat ikki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ajralmas zaruriyati, balki mintaqaviy iqtisodiy

integratsiyaning harakatlantiruvchi kuchi hamdir. Resurslar, tarmoqlar va strategiyalarining bir-birini to'ldirishi orqali ikki mamlakat o'zaro manfaatlariga erishishi hamda Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mintaqasi o'rtasidagi hamkorlikning namunal modelini yaratishi mumkin.

Shu o'rinda O'zbekiston va Kuvayt rahbariyati olib borayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarning o'xshash jihatlari haqida ham to'xtalish joiz. Bu fikrni Kuvayt Amiri alohida ta'kidladi. U O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga Prezidentimizga so'zi va amaliy bir shaxs, deya ta'rif berdi. Davlatimiz rahbarining iqtisodiyot

qo'mita sessiyalarini o'tkazishga kelishildi.

Ikki mamlakat rahbarlarining muzokaralari yakunlari bo'yicha to'g'ri yo'nalishda o'zaro manfaatli bitimlar imzolandi. Xususan, Sanoat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, Havo qatnovi to'g'risidagi bitimga bayonoma, Mehnat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, "Aqlli" shaharlarni barpo etish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, San'at va madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, Turizm sohasida 2025 - 2027-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi, Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi bilan hamkorlik to'g'risida bitim.

Ular ichida Kuvayt mehnat bozoriga o'zbekistonlik potensial ishchi kuchini jalb qilishga qaratilgan mehnat sohasidagi hamkorlik bitimiga to'xtalish joiz. O'zbekistonning tashqi mehnat migratsiyasida yangi manzil sifatida Kuvayt mehnat bozori o'rganishi va soha mutaxassislarini jalb qilish o'ta muhim. Bu boradagi bitim orqali migratsiya sohasidagi hamkorligimizning huquqiy tamoyillari belgilab olingan. Kuvayt aholisi 4,9 million kishini tashkil etganida, mamlakatda 3,4 million nafar muhojir mehnat qiladi. Ular qurilishdan tortib yuqori texnologiyali kompaniyalarda, tibbiyot, ta'lim, sun'iy intellekt va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonning malakali ishchi kuchidan tortib, yuqori bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislariga Kuvaytda ishlab, katta daromad ko'rishini mumkin. Ushbu omil, oxir-oqibat, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlari va savdo-iqtisodiy sheriklikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu nafaqat mutaxassislarimizning Kuvaytda ishlashini nazarda tutadi, balki kuvaytlik yuqori malakali mutaxassislar va ekspertlarining O'zbekistonda ishlashi hamda faoliyat yuritishi uchun ham zamin yaratadi. Qolaversa, Kuvaytning iqtisodiyot, moliya, bank ishi, investitsiya siyosati, innovatsiyalar, ta'lim va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tajribasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun katta qiziqish uyg'otayotganini alohida ta'kidlash kerak.

O'zbekiston yetakchisining Kuvaytga rasmiy tashrifi bugungi geosiyosiy notinchlik sharoitida islom olamida siyosiy, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan muhim missiya bo'ldi, desak, yanilishmagan bo'larmiz. Tashrif ikki tomonlama munosabatlari rivojida muhim voqea bo'lib, nafaqat O'zbekiston va Kuvayt, balki butun mintaqada uchun manfaatli hisoblangan ko'plab yangi loyihalarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi, madaniy va siyosiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu - O'zbekistonning xalqaro jarayonlarga yanada chuqurroq integratsiyalashuviga muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy hamkorlik bo'yicha muhokamalar Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda barqarorlikni ta'minlashga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Abdullav SOYIBNAZAROV, sharhlovchi ("Xalq so'zi").**

## Keng qamrovli sheriklikda dadil qadamlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Sabohning taklifiga binoan ushbu mamlakatga amalga oshirgan rasmiy tashrifi davomida O'zbekiston bilan Kuvayt o'rtasidagi do'stlik va ko'p qirrali sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya-moliyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalari bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

### Fikr

Al-Kuvayt shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida ikkala mamlakat yetakchilari tomonidan O'zbekiston - Kuvayt keng qamrovli sheriklik munosabatlari rivojlantirish to'g'risida qo'shma bayonot qabul qilinib, sanoat, havo qatnovlari, mehnat, "aqlli" shaharlar, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash, turizm sohalarida hamda Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan.

Shuningdek, muzokaralar davomida Prezidentimiz Kuvaytda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan, maqsad va vazifalari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlariga hamohang bo'lgan "Nigoh 2035" (Kuwait Vision 2035) davlat dasturini alohida qayd etdi.

Sababi, Kuvaytning "Nigoh 2035" va O'zbekistonning "O'zbekiston - 2030" strategiyalari o'z mamlakatlarini transformatsiya qilishga qaratilgan uzoq muddatli milliy rivojlanish dasturlaridir. Biroq ularning asosiy yo'nalish, ustuvorlik va chaqiriqlari iqtisodiy tuzilmalar, geografik joylashuvi va boshqaruv modellari (Kuvayt konstitutsion monarxiya davlati) tufayli farqlanadi.

Kuvayt ham, O'zbekiston ham o'z iqtisodiyotlarini transformatsiya qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan ulkan milliy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishga kirishgan.

2017-yilda boshlangan "Kuwait Vision 2035" yoki "New Kuwait" dasturlari iqtisodiyotni neftga qaramlikdan uzoqlashtirish va mamlakatni mintaqaviy moliyaviy va tijorat markazi sifatida tanitishga qaratilgan.

Xuddi shunday, 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida sanoatni modernizatsiyalash, raqamli transformatsiya va iqtisodiyotni liberalashtirishga alohida e'tibor berilgan. Ularning iqtisodiy tuzilmalari bir-biridan farq qilsada, ikkala strategiya markazida barqarorlik, inson

kapitalini rivojlantirish va innovatsion taraqqiyotga urg'u berilgan.

Qiziqarlisi, ikki mamlakat milliy rivojlanish dasturlarida o'xshash yo'nalish va maqsadlar kam emas. Xususan:

**iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish** - ikkala mamlakat ham an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlariga (Kuvayt uchun neft, O'zbekiston uchun foydali qazilmalar) qaramlikni kamaytirishga intilmoqda. O'zbekistonda ushbu maqsadda foydali qazilmalar va xomashyo eksporti o'rninga sanoatni rivojlantirgan holda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarib, ulami eksportga yo'naltirish nazarda tutilgan.

Raqamlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Kuvayt yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda 163,7 mlrd. dollarni tashkil etib, uning 51 foizi neft daromadlaridan olingan. Nofe't sektorining o'sishi yiliga 6 foiz bo'lgan. Kuvayt eksporti va davlat daromadlarining 90 foizidan ortig'i neft va gazdan;

**innovatsiyalar va texnologiyalar** - raqamli transformatsiya, SI va "aqlli" infratuzilmaga katta e'tibor qaratilgan;

**xorijiy sarmoyalarni jalb qilish** - har ikkala strategiya ham investorlar uchun qulay muhit yaratishga ustuvor ahamiyat bergan;

**ta'lim va inson kapitalini rivojlantirish** - ta'limni modernizatsiya qilish va global miqyosda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga umumiy e'tibor qaratilgan;

**infratuzilma va shaharsozlik** - aloqani kuchaytirish va shaharlarni modernizatsiya qilish uchun ulkan loyihalar tayyorlangan.

O'xshash siyosat va maqsadlarga qaramasdan, asosan, iqtisodiy tuzilma va geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan dasturlarning farqli tomonlari ham mavjud.

Kuvayt milliy dasturida neftga asoslangan iqtisodiyotdan moliyaviy va savdo markazlariga, shuningdek, xususiyashtirish va megaloyihalarga e'tibor qaratadi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, YAIMda sanoat ulushini oshirish, ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar va mintaqaviy rivojlanishga katta e'tibor qaratilgan holda sanoatlashtirish, innovatsiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish muhim joy egallagan.

Rivojlanishi va pirovard maqsadlari bir-biriga yaqin bo'lgan ikki mamlakat milliy dasturlari doirasida potensial hamkorlikni bir necha soha orqali amalga oshirish imkonini bor. Jumladan:

**texnologiya va sun'iy intellekt** - O'zbekistonning sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi Kuvaytning aqlli boshqaruv tashabbuslariga mos kelgan holda, qo'shma tadqiqotlar va startaplarni jadallashtirish dasturlarini amalga oshirish mumkin;

**ta'lim almashinuvi** - Kuvayt universitetlari va O'zbekistonning rivojlanayotgan muhandislik maktablari o'rtasida qo'shma ta'dqiqot va talabalar almashinuvi dasturlari bo'yicha hamkorlik qilish imkoniyatlari katta;

**logistika va savdo** - Kuvaytning Fors ko'rfazidagi savdo markazi sifatidagi strategik joylashuvi va O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi mavqei qo'shma logistika yo'laklari va transport infratuzilmasiga sarmoya kiritish uchun imkoniyatlar yaratadi;

**ishlab chiqarishga sarmoya kiritish** - Kuvaytning suveren jamg'arnasi O'zbekistonning o'sib borayotgan sanoat tarmoqlariga, jumladan, to'g'ri qimchilik, avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishi mumkin (2024-yilda jamg'arna boshqaruvdagi aktivlarning umumiy qiymati 980 mlrd. dollari tashkil etgan).

Ikkala strategiya ham iqtisodiy o'zgarishlar va barqarorlikka qaratilgan bilan ahamiyatli. Kuvaytning rejai ko'proq moliya va jahon savdosiga yo'naltirilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning yondashuvi innovatsiyalar, sun'iy intellekt va sanoat modernizatsiyasi, iqtisodiyot diversifikatsiyasi, raqamli transformatsiya va inson kapitaliga sarmoya kiritishga asoslangan. Ikki davlatning savdo, texnologiya, energetika va ta'lim sohasidagi strategik hamkorligi ularning milliy maqsadlarini tezlashtirishi va uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishi mumkin.

**Ziyodbek YUNUSOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

Joriy yilda Asaka, Kitob, Baxmal, Xatirchi va Farg'ona tumanlarida, 2026-yilda esa qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan yana kamida 5 ta tumanda kichik logistika markazlari barpo etiladi.



21-fevral – Xalqaro ona tili kuni



Abdulla Oripov,  
O'zbekiston Qahramoni,  
xalq shoiri

## ONA TILIMGA

Ming yillarkim, bulbul kalomi,  
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.  
Ammo sho'rlik to'tining holi,  
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

## Mahalla – yorug' yuzimiz va hayotimiz mazmuni

Keyingi yillarda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda mutlaqo yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Bu esa sodir qilinadigan qonunbuzilish holatlarining asl omillarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish imkoniyatini yanada kengaytirdi, desak, mubolag'a emas.

### Aks sado

Jumladan, Toshkent viloyatida hayotga joriy qilingan "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili oilalarda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarlikning oldini olish, ijtimoiy-maishiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining shu yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu yo'nalishdagi ishlarga yangicha sur'at beradi.

Mazkur hujjatga ko'ra, mas'ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda "Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Ayni shu maqsadda manzilli chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlangan bo'lib, har chorakda viloyat, tuman va mahalla darajasidagi "yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi belgilab qo'yildi.

"Qizil toifa"dagi mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o'rganishlarni o'tkazish orqali muammolarga "mahalla yettilligi" bilan birgalikda yechim topish bo'yicha har bir vakilning aniq mas'uliyati ham ko'rsatib o'tildi.

Aytish kerakki, endilikda tegishli mas'ul



idoralar bilan hamkorlikda mahallalar, jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog'ligi va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalar keng joriy etiladi. Sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalari yuzasidan qat'iy so'rov tizimi yo'lga qo'yilib, ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta'sir choralarini ko'rib borish ham belgilandi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiyaning psixolog-inspektorlari hamda tezkor harakatlanuvchi guruhlar hamkorligida

xizmat olib boriladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatlarining oldini olish bo'yicha tezkor harakatlanish tizimi amaliyotga tatbiq etiladi.

Mazkur qaror bilan adliya organlari oldiga ham qator ustuvor vazifalar qo'yildi. Qaror qabul qilinganiga ko'p bo'lmasdan Toshkent viloyati adliya boshqarmasi tomonidan tuman va shahar sektor rahbarlari, ichki ishlar organlarining mas'ul vakillari bilan dastur hamda hududiy "yo'l xaritalari" ijrosini ta'minlash yuzasidan hamkorlikda ishlar boshlab yuborildi.

Xususan, adliya idoralari

tomonidan shu kunga qadar "qizil toifa"dagi va kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda 2993 ta huquqiy targ'ibot tadbiri tashkil qilinib, turli huquqiy masalalarga oid 1449 ta material tarqatildi.

Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda vakolatli organlar hudud aholisining tarkibi, mashg'uloti, hududiy geografik joylashuvi, mahalliy aholining urf-odatlari, iqtisodiyoti, ijtimoiy qadriyatlari, kriminogen vaziyat, huquqbuzarliklarning sifat hamda miqdor ko'rsatkichlari kabi farqli jihatlarni inobatga olib, yetarli darajada tashabbus ko'rsatsa, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda ijobiy natijalarga erishilishi muqarrar.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash yurt taraqqiyoti va osoyishtaligini mustahkamlash, xalq farovonligini yuksaltirishning muhim shartidir. Bunda huquqbuzarliklar profilaktikasi va mazkur dolzarb vazifaga mas'ul xodimlarning o'rni katta.

Yangi O'zbekistonimizning har bir mahallasini jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, bu borada befarqlik, loqaydlik holatlariga barham berish jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Har bir fuqaro ongida "Mening mahallamda jinoyat sodir bo'lmasligi kerak" degan tuyg'uni shakllantirish asosiy maqsadimizga aylanmogi lozim.

Abdumutalib DADAJONOV,  
Toshkent viloyati adliya  
boshqarmasi boshlig'i.

### E'tirof

## O'zbek filmi – xalqaro festival g'olibi

Yaqinda Vatikan davlatining yagona kinofestivali – XVI "Mirabile Dictu" tantanasi bo'lib o'tdi.

Jahon kinoijodkorlari tomonidan kinofestivalga jo'natilgan 2 mingdan ziyod filmlar ichida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi "O'zbektelefilm" davlat muassasasi tomonidan ishlab chiqarilgan "Aydinlar" badiiy filmi ushbu festivalda "Eng yaxshi film" nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, 2021-yilda "Aydinlar" filmi Bolgariya kino, televideniye va internet

kommunikatsiya akademiyasi tomonidan o'tkazilgan IX xalqaro kino-telefestivalda Granpriga sazovor bo'lgandi.

Mazkur filmda qoraqalpoq yigitinging chet elda o'qib, yurtiga qaytishi hamda Mo'ynoqda o'z muhabbatini uchratib, Vatandagi yangicha o'zgarishlarga guvoh bo'lishiga oid sarguzashtlari tasvirlanadi.

"Xalq so'zi".

## "HOVLI KO'RDI"GA KO'CHAT SOVG'A QILINDI

Yosh shifokor Abdulaziz Mustafouqulov yaqinda ro'zg'orini alohida qildi. Shu vaqtgacha akasining oilasi bilan birga ahil-inoq yashagan ota hovlisidan yangi qurgan uyiga ko'chib chiqdi.

### Yashil makon

Dabdaba va hashamatlardan xoli, ammo juda chiroyli me'moriy va zamonaviy ko'rinishda bunyod etilgan shinam hovli-joyining anchamuncha tomorqasi bor. Unda ro'zg'ori uchun yetarli meva-cheva, sabzavot rezavorlar yetishtirish, qolaversa, ortiqchasini bozorga chiqarib, qo'shimcha daromad qilishi mumkin. Lekin u yerda hali birtorta ko'chat ekilmagan. Shundanmi, yoshi yetmishni qoralayotgan amakisi Mamadali bobo "Abdulazizjon, "hovli muborak"ka o'zim o'stirayotgan ko'chatlardan sovg'a qilaman, o'z qo'lim bilan ekib ham beraman", deb qoldi. Otaxonning bu gapi Abdulaziz Mustafouqulovning boshqa yaqinlariga ham ma'qul bo'ldi. Natijada ekiladigan daraxt turlari ro'yxat qilinib, olinadigan ko'chatlar qarindoshlar o'rtasida taqsimlandi. Shirin shaharning Nurobod mahallasida yashayotgan yosh oila tomorqasida ajib bir bog' yaratildi...

Sirasini aytganda, so'nggi yillarda sovg'alarning turi ko'paydi. Kimdir otasi yoki boshqa yaqinining tug'ilgan kuniga avtomobil, birov Umra ziyoratiga yo'llanma tuhfa qilmoqda. Yana farzandlariga yaxshi kunlarida xonadon turfa qimmatbaho hadyalar tortiq qilish ham urfga kirmoqda. Albatta, bularning bari xalqimiz turmushining tobora farovon bo'lib borayotganidan dalolat. Ammo hayotda shunday tuhfa berki, ular har qanday zaru javohlardan-da qimmatli, muhimi, har doim foydalidir.

Bulardan yana biri xalqimizning ma'naviy qadriyatiga aylanib borayotgan sovg'aga kitob berish odatidir. Deylik, bugun sepida sandiq-sandiq kitoblari bor kelinlar, "ota ko'rldi"da qiziga dasta-dasta kitoblar hadya qilayotgan otalar ham borligi qunovarli. Shu ma'noda, azaldan otalar va bobolarning farzandlariga atab tomorqalarining adog'iyu tegrasida qator-qator teraklar o'stirishini misol keltirsak, ko'chatlar ham yaqinlarimiz va umuman, boshqalar uchun ham beriladigan eng chiroyli hamda kerakli sovg'a ekanligi ayon bo'lishi, shubhasiz.

Qolaversa, o'sha Abdulaziz



Mustafouqulovning yaqinlari tuhfa etgan ko'chatlarning tez orada beradigan mevalaridan qancha kishilar bahramand bo'ladi, soyasidan orom oladi. Yaproqlari "ishlab chiqaradigan" kisloroddan to'yib-to'yib nafas olinadi. Shu bilan birga, ushbu daraxtlar sovg'a egasining nomini mazkur xonadon va atrof javonibda uzoq yillar eslatib turadi. Haqqiga duolar va minnatdorliklar aytiladi. Demak, tuhfa sifatida berilgan nihol ham kitobdek ko'p naf va savob keltiradi. Shunday ekan, bundan ibrat olib, yurtdoshlarimiz o'rtasida ham bir-birlariga ko'chat sovg'a qilish keng ommalashsa, maqsadga muvofiq emasmi?

Shukronalik bilan maqtansak arziydiki, yurtimiz shaharu qishloqlari, xonadonlari yil sayin ko'rkam va obod bo'lib bormoqda. Jonajon O'zbekistonimiz ulug'vor bunyodkorliklarga uyg'un ravishda "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida bog'u rog'larga burkanmoqda. Mazkur keng ko'lami ish izchil va jadal davom ettirilmoqda. Bu borada ko'zlangan maqsadlarga ortig'i bilan erishish va Vatanimizning yashil boyligini yanada boyitishda, albatta, har bir yurtdoshimiz va har bir oilaning faol ishtiroki juda muhim. Ushbu xayrli vazifani nihol ekib o'stirish barobarida yaqinlarimiz yoki ehtiyojmand oilalar tomorqasi uchun ko'chatlar sovg'a qilish bilan ham to'la-to'kis bajarsak bo'ladi. Yillar o'tib, bu ishimiz xalqimizning ko'plab bebaho milliy qadriyatlariga qatoridan o'rin olsa, "hovli muborak", "uy ko'rldi"ga sovg'a uchun ko'chatlar ko'tarib kelish urfga aylansa, ajab emas.

Ahmadali SHERNAZAROV  
("Xalq so'zi").

## MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

### quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

#### AMALIY MATEMATIKA VA INTELLEKTUAL TEKNOLOGIYALAR FAKULTETI

**Hisoblash matematikasi va axborot tizimlari kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta;  
professor lavozimiga — 1 ta.

**Dasturiy injiniring va sun'iy intellekt kafedrasini:**  
professor lavozimiga — 1 ta.

#### BIOLOGIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI

**Biofizika kafedrasini:**

professor lavozimiga — 1 ta.

**Tuproqshunoslik kafedrasini:**

professor lavozimiga — 1 ta.

**Ekologiya kafedrasini:**

professor lavozimiga — 2 ta.

#### FIZIKA FAKULTETI

**Quruqlik gidrologiyasi va meteorologiya kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

#### GEOLOGIYA VA MUHANDISLIK GEOLOGIYASI FAKULTETI

**Geofizika va gidrogeologiya kafedrasini:**

professor lavozimiga — 1 ta.

#### IJTIMOYIY FANLAR FAKULTETI

**Falsafa kafedrasini:**

professor lavozimiga — 3 ta.

**Huquqiy fanlar kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

**Siyosatshunoslik kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

#### JURNALISTIKA VA O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**Jurnalistika kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

**Rus tilshunosligi kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

#### KIMYO FAKULTETI

**Analitik kimyo kafedrasini:**

professor lavozimiga — 1 ta.

**Organik va neft-gaz kimyo kafedrasini:**

professor lavozimiga — 1 ta.

**Polimerlar kimyosi kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta;

professor lavozimiga — 2 ta.

**Tabiiy birikmalar va amaliy kimyo kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta;

professor lavozimiga — 1 ta.

**Umumiy va noorganik kimyo kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

**Fizikaviy kimyo kafedrasini:**

professor lavozimiga — 2 ta.

#### MATEMATIKA FAKULTETI:

**Algebra va funksional analiz kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

**Differensial tenglamalar va matematik fizika kafedrasini:**

professor lavozimiga — 1 ta.

#### Geometriya va topologiya kafedrasini:

professor lavozimiga — 1 ta.

#### TAEKVONDO VA SPORT FAOLIYATI FAKULTETI

**Sport menejmenti kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

#### TARIX FAKULTETI

**Jahon tarixi kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

#### XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI

**Fransuz filologiyasi kafedrasini:**

kafedra mudiri lavozimiga — 1 ta.

**Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:**

1. Universitet rektori nomiga ariza;
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma);
3. Oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
4. Ilmiy unvoni, ilmiy darajasi to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
5. Ilmiy ishlari ro'yxati (so'nggi 3 yil);
6. Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
7. Xorijiy til bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi (xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchilari uchun).

Hujjatlar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi,  
4-uy, O'zMUning xodimlar bo'limi. Telefon.: 71-246-03-92.

Ayni kunlarda poytaxtimizdagi AKT yo'nalishida ta'lim olayotgan yoshlar uchun "Annual Internship Program Roadshow" ta'lim ro'yd-shousi tashkil etilmoqda.

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 479 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir F. Bozorov.  
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.30 Topshirildi — 00.25 1 2 3 4 5 6